

Xulosa qilib aytganda, institutsional investorlar ishtirokini kengaytirish kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasi tadbirkorlik subyektlarining investitsion faolligini oshirishga, iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishga hamda mamlakat moliya bozori barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ko'rsatkichlari" (2023). www.stat.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. "Mikromoliyaviy tashkilotlar statistikasi" (2023). www.cbu.uz
3. European Bank for Reconstruction and Development (EBRD). "The EBRD in Uzbekistan – Country Overview" (2022). www.ebrd.com
4. Asian Development Bank (ADB). "Asia SME Monitor – Uzbekistan" (2022). www.adb.org
5. O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi hisobotlari (2023).

MOLIYA BOZORI INFRASTRUKTURASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH

Mamatkulova Nodira Makkamovna
TAQU, "Menejment" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonida moliya bozori infratuzilmasining ahamiyati tahlil qilinadi. Kapital bozori, institutsional investorlar, moliyaviy instrumentlar hamda moliya bozorining institutsional mexanizmlarini rivojlantirish xorijiy investorlar uchun investitsiya muhitining jozibadorligini oshirishda muhim omil sifatida baholanadi. Shuningdek, xalqaro tajriba va mamlakat iqtisodiyotidagi mavjud tendensiyalar asosida moliya bozori infratuzilmasini rivojlantirish orqali xorijiy investitsiyalar oqimini kengaytirish bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: moliya bozori, kapital bozori, institutsional investorlar, xorijiy investitsiyalar, investitsiya muhiti, moliyaviy infratuzilma.

Jahon iqtisodiyotida kapitalning xalqaro harakati va investitsiya oqimlarining ortib borishi sharoitida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TXI) iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotining modernizatsiyasi, ishlab chiqarish samaradorligining oshishi va yangi texnologiyalarning joriy etilishida muhim rol o'ynaydi [1].

So'nggi yillarda O'zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilash, iqtisodiyotning ochiqqligini ta'minlash va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. BMTning Savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi (UNCTAD) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda dunyo bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi qariyb 1,3 trillion AQSh dollarini tashkil etgan [2].

O'zbekiston iqtisodiyotida ham investitsiya jarayonlari sezilarli darajada faollashib bormoqda. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, so'ngi yillarda mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshgan [3].

Shu bilan birga, investitsiya oqimining barqarorligini ta'minlash ko'p jihatdan moliya bozori infratuzilmasining rivojlanganlik darajasiga bog'liqdir. Rivojlangan moliya bozori investorlar uchun kapital harakatining samaradorligini oshiradi hamda investitsiya risklarini kamaytiradi.

Moliya bozori infratuzilmasi moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishini ta'minlaydigan institutlar, tashkilotlar va mexanizmlar majmuasidan iborat. U kapital bozorining barqaror ishlashini ta'minlash, investorlar manfaatlarini himoya qilish hamda moliyaviy operatsiyalarni samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Mashhur iqtisodchi olim F. Mishkin moliya tizimining rivojlanishi iqtisodiy o'sishning muhim omili ekanligini ta'kidlab, rivojlangan moliyaviy institutlar investitsiyalar hajmining ortishiga bevosita ta'sir ko'rsatishini qayd etadi [4].

Moliya bozori infratuzilmasining asosiy elementlariga fond birjalari, investitsiya kompaniyalari, brokerlik tashkilotlari, depozitariy tizimi, kliring markazlari, sug'urta kompaniyalari hamda investitsiya fondlari kiradi. Ushbu institutlar kapitalning erkin harakatini ta'minlab, investorlar uchun xavfsiz va barqaror moliyaviy muhit yaratadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, moliya bozori infratuzilmasi rivojlangan mamlakatlarda investitsiya muhitining jozibadorligi yuqori bo'ladi. Masalan, AQSh, Buyuk Britaniya, Singapur va Janubiy Koreya kabi davlatlarda kapital bozori rivojlanganligi xorijiy investitsiyalar oqimining barqaror o'sishini ta'minlagan [5].

O'zbekistonda kapital bozorini rivojlantirish va moliya bozori infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lamlı iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, fond bozorini rivojlantirish, davlat korxonalarini xususiylashtirish hamda IPO va SPO mexanizmlarini joriy etish orqali kapital bozorini faollashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, bank sektorini modernizatsiya qilish, sug'urta bozorini rivojlantirish va institutsional investorlar faoliyatini kengaytirish bo'yicha ham muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jahon banki tadqiqotlariga ko'ra, institutsional investorlar faoliyatining rivojlanishi kapital bozorining likvidligini oshiradi va investitsiya jarayonlarini jadallashtiradi [5].

Biroq, moliya bozori infratuzilmasi rivojlanishida ayrim muammolar ham mavjud. Kapital bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligi, moliyaviy instrumentlar xilma-xilligining pastligi hamda institutsional investorlar faoliyatining cheklanganligi xorijiy investorlar uchun investitsiya imkoniyatlarini cheklab qo'yimoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, moliya bozori infratuzilmasining rivojlanishi xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonida muhim strategik omil hisoblanadi. Rivojlangan moliyaviy infratuzilma kapital harakatining samaradorligini oshiradi, investitsiya risklarini kamaytiradi va investorlar uchun qulay investitsiya muhitini yaratadi. O'zbekiston iqtisodiyotida kapital bozorini rivojlantirish, institutsional investorlar rolini oshirish hamda moliyaviy instrumentlar xilma-xilligini kengaytirish orqali to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Dunning J. Multinational Enterprises and the Global Economy. – Addison Wesley, 2018.*
2. *UNCTAD. World Investment Report 2023. – United Nations, Geneva.*

3. Mishkin F. *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. – Pearson Education, 2021.

4. Levine R. *Finance and Economic Growth: Theory and Evidence*. – Handbook of Economic Growth, 2018.

5. World Bank. *Global Investment Competitiveness Report 2022*.

O'ZBEKISTONNING XALQARO FOND BOZORLARIDAGI ISHTIROKI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Raxmonberdiyeva Feruza Rixsiboyevna

*TMC instituti "Iqtisodiyot, moliya va buxgalteriya hisobi"
kafedrası katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston fond bozori infratuzilmasini rivojlantirishning dolzarb masalalari, xalqaro tajriba asosida uni takomillashtirish yo'nalishlari hamda investorlar uchun qulay investitsiya muhitini yaratish mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, fond bozori likvidligini oshirish, IPO jarayonlarini kengaytirish va raqamli savdo platformalarini joriy etish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: fond bozori, kapital bozori infratuzilmasi, IPO, investorlarni himoya qilish, qimmatli qog'ozlar bozori, mobil savdo platformalari.

Dunyo fond infratuzilmasi rivojlanishidagi ijobiy tajribani umumlashtirgan holda aytish jozki, O'zbekiston fond infratuzilmasini takomillashtirish doirasidagi vazifalarni hal etish uchun Yevropa investorlari tomonidan o'n yillar davomida sinalgan bozor mexanizmlari va instrumentlarini O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish va investorlarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida O'zbekiston sharoitiga moslashtirish va imkon qadar foydalanish shart. Strategiyani dunyo moliya tizimi rivojlanishi yo'nalishini hisobga olgan holda shakllantirish esa milliy kapital bozorlari globallasuvi va integratsiyalashuvi sharoitida zarur raqobatbardoshlikka erishish imkonini beradi.

O'zbekiston fond bozorining tizimli tashkil etuvchi infratuzilmasining raqobatbardoshligini oshirish quyidagi taktik masalalarni o'z ichiga oladi:

- hisobga olish va hisob-kitob-kliring infratuzilmasini markazlashtirish;
- O'zbekiston Respublikasida fond bozori faoliyatini rivojlantiruvchi, tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi Makroregulyatorni joriy etish;
- investorlarning huquqlarini himoya qilish tizimini yaratish;
- birja faoliyatini jamlash va birlashtirish;
- infratuzilma faoliyati normalari, qoidalari va taomillarini standartlashtirish va unifikatsiya qilish.

O'zbekistonda fond bozori infratuzilmasining raqobatbardoshligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni ko'rish lozim:

- hisobga olish va hisob-kitob kliring infratuzilmasini markazlashtirish;
- fond bozorini tartibga solishni takomillashtirish;
- fond bozoriga reklama vositalari va usullarini keng joriy etish asosida aholini keng qatlamini hamda manfaatdor tashkilotlarni fond bozorining afzalliklari haqida keng xabardor qilish;
- infratuzilma institutlari faoliyatini monopoliyadan chiqarish.